

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
IQTISODIYOT FANLARI DOKTORI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI**

**DSc.03/30.07.2022.1.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

**ABDUMU'MINOV AXRORJON AXATJONOVICH**

**SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH**  
**(Andijon viloyati donni qayta ishlash korxonalari misolida)**

**09.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

UDK: 658.562 (575.12)

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам

Contents of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on economical sciences

Abdumo'minov Axrorjon Axa'tjonovich  
Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirish (Andijon viloyati donni qayta  
ishlash korxonalari misolida) ..... 3

Абдумуминов Ахроржон Ахатжонович  
Повышение конкурентоспособности промышленных предприятий (на  
примере зерноперерабатывающих предприятий Ханджанской области) ..... 27

Abdumuminov Akhrorjon Axa'tjonovich  
Increasing the competitiveness of industrial enterprises (on the example of grain  
processing enterprises in Andijan region)..... 55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati  
Список опубликованных работ  
List of published works ..... 59

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
IQTISODIYOT FANLARI DOKTORI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI  
DSc.03/30.07.2022.1.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

ABDUMO'MINOV AXRORJON AXATJONOVICH

SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH  
(Andijon viloyati donni qayta ishlash korxonalari misolida)

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI



Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi B2022.3.PhD/Iqt42398 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon mashinasozlik institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb sahifasida (www.tsu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

#### Ilmiy rahbar:

**Madrahimov Ulug'bek Abdusalilovich**  
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

#### Rasmiy opponenlar:

**Xashimova Naima Abitovna**  
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Kadirov Abdumalik Matkarimovich**  
Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

#### Yetakchi tashkilot:

**Namangan muhandislik-texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/30.07.2022.1.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «13» soat 14<sup>00</sup> daqiqa ma'limat bo'lib o'tadi. (Manzil: Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel./Faks: (+998 71) 239-28-72; faks: (+998 71) 239-43-51, e-mail: dnu@tdtu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (443 -raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel: (+998 71) 239-28-72).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «29» kuni tarqatildi.  
(2024 yil «29» 03 dagi № 21- raqamli registr bayonnomasi).



**K.A. Sharipov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son farmoni.

**M.K. Abdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,  
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

**A.U. Burxonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

## KIRISH (dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda globallashtirish sharoitida iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash, soha va tarmoqlar barqarorligiga erishish, jumladan, sanoat korxonalarida resurslardan samarali va maqbul foydalanishga erishish, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan yuqori talabni maksimal darajada qondirish asosida aholi turmush darajasini ko'tarishda korxonalar raqobatbardoshligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "2021-yili sanoatning YAIMdagi ulushi Xitoyda 39,4 foizni, Hindistonda 25,9 foizni, Malayziyada 37,8 foizni, Meksikada 30,8 foizni, Tailandda 34,8 foizni, Turkiyada 31,1 foizni, Vetnamda 37,5 foizni tashkil etgan". Mamlakatlarda yaratilgan yalpi ichki mahsulotdagi sanoatning ulushini oshirish hisobiga barqaror iqtisodiy o'sish davomiyligini ta'minlash, korxonalar ishlab chiqarish ko'lamini va eksport hajmini kengaytirish, mavjud omil hamda manbalardan foydalanish samaradorligini oshirish, iqtisodiy salohiyatini kengaytirish hisobiga sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon mamlakatlarida korxonalarining iqtisodiy resurslaridan oqilona va samarali foydalanish asosida aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ustuvor yo'nalishdagi izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlarda oziq-ovqat sanoati korxonalarini raqobatbardoshligi omillarini aniqlash, bu borada mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olib muhim manbalarni ochib berish, korxonalarini raqobatbardoshligini baholash usullarini takomillashtirish, mavjud muammo va ularning ilmiy yechimlarini tadqiq qilish, sohaning samaradorligini oshirish yo'llarini ochib berish, oziq-ovqat sanoati korxonalarini diversifikatsiyalash, raqobatbardoshlik darajasini tahlil qilish hamda uning omillari asosida ekonometrik modellarni ishlab chiqish, takomillashtirish va ular asosida prognoz parametrlarini tadqiq etish bu boradagi ilmiy izlanishlarning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda oziq-ovqat sanoati korxonalarini raqobatbardoshligini ta'minlashda sanoat sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini kengaytirishga, uning yalpi ichki mahsulotidagi, eksportdagi, ish bilan bandlikdagi ulushini oshirishga, resurs salohiyatidan samarali foydalanishga va bu asosda oziq-ovqat mahsulotlari hajmi hamda sanoat salohiyatini kengaytirishga alohida e'tibor berilmoqda. "Oziq-ovqat xom-ashyo bazasini kengaytirish va organik mahsulotlar hajmini bosqichma-bosqich oshirish, oziq-ovqat mahsulotlari hajmini 7,4 mln. tonnaga, qayta ishlash darajasini sut bo'yicha 32 foiz, go'sht – 25 foiz, meva-sabzavot – 28 foizga yetkazish" bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalardan kelib chiqib, oziq-ovqat sanoati raqobatbardoshligini ta'minlovchi omillarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish, korxonalar raqobatbardoshligining ko'rsatkichlarini tasniflash va baholash usullarini takomillashtirish, sohaning o'ziga xos jihatlari aniqlash orqali raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha ilmiy takliflar berish,

korxonalar ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish hisobiga raqobatbardoshligi va barqarorligini ta'minlash yo'nalishlarini tadqiq qilish, ekonometrik modellar asosida prognoz parametrlarini ishlab chiqish yo'nalishidagi izlanishlar muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi, 2023-yil 10-iyundagi PF-90-son "Ma'muriy islohotlar doirasida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmonlari va 2019-yil 1-maydagi PQ-4302-son "Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish hamda talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, 2019-yil 29-iyuldagi PQ-60-son "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi, 2020-yil 9-sentabrdagi PQ-4821-son "Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatlari oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'qomli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-sentabrdagi VMQ-581-son "Oziq-ovqat sanoati sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 21-apreldagi VMQ-204-son "2022-2026-yillarda Andijon viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 20-yanvardagi VMQ-37-son "Respublikada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida" gi qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirish yo'nalishlari va omillari hamda raqobatbardoshlikni baholash usullari M. Porter, Karl Aiginger, Susanne Bärenthaler-Sieber, Johanna Vogel, A.I. Mokiy, A. Ambastha, K. Momaya, M.J. Eskandari, M. Miri, S. Gholami, H.S. Nia, J. Fagerberg, Z. Dou, B. Wu, Y. Sun, T. Wang<sup>3</sup> va boshqa xorijiy olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

<sup>3</sup> M. Porter "Competitive strategy: Techniques for analyzing industries and competitors". The Free Press, 1998.  
Porter M. "Competitive Advantage of Nations". Harvard Business Review, March-April 1990.; Karl Aiginger, Susanne Bärenthaler-Sieber, Johanna Vogel "Competitiveness under New Perspectives" Working Paper no 44 October 2013; Mokiy A.I. Strategy and processes of strengthening the spatial-structural competitiveness of region Monograph / For ed. Mokiy A.I., Vasilits T.G. - Lviv: Liga Press, 2010; Ambastha, A. Momaya, K. Gholami, H.S. Nia, J. Fagerberg, Z. Dou, B. Wu, Y. Sun, T. Wang "Factors affecting the competitiveness of the food industry by using Porter's five forces model case study in Hamadan Province, Iran". Journal of Asian Scientific Research, 2015,5 (4); Fagerberg J. Technology and competitiveness // Oxford review of economic policy

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan R. Fatxutdinov, G. Saxanova, V.M. Larin, A.D. Nemsev, A.V. Pavlova, A.V. Pavlova, Ye.B. Sheludkolar<sup>4</sup> korxonalar raqobatbardoshligi omillarining xususiyatlarini, Yu.S. Otmaxova, N.I. Usenko, D.A. Devyatkin, V. Songkassiri, T.I. Vlasenko, I.A. Angelina, S.B. Salita, D.S. Voronovlar<sup>5</sup> korxonalar raqobatbardoshligini baholash usullari bilan bog'liq masalalarni tadqiq etganlar.

O'zbekistonda sanoat tarmoqlari va korxonalarini rivojlantirish hamda raqobatbardoshligini oshirish muammolari Sh. Shoaxmedov, D.S. Nasirxodjaeva, Sh.X. Nazarov, T.S. Rasulov, J.I. Isroilov, Z.A. Xakimov, V.G. Kim<sup>6</sup> tadqiqotlarida o'rganilgan. Shuningdek, L. Zoyirov, A. Qorjonov, G. Mamasoliev<sup>7</sup> sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini ta'minlovchi omillarni tadqiq etgan. I.B. Sharipov, Z.A. Xakimov, J.I. Isroilov<sup>8</sup> tadqiqotlari sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini baholash usullariga qaratilgan.

1996; Z. Dou, B. Wu, Y. Sun, T. Wang "The competitiveness of manufacturing and its driving factors: a case study of G20 participating countries" // Journal of Sustainability, 22 January 2021;

<sup>4</sup> "Fatkhutdinov R.A. Management of competitiveness of the organization. - 2nd ed. - New York: Penguin Books, 2005; Saxanova G. "Развитие конкурентоспособности экономики Республики Казахстан: проблемы и перспективы (на примере пищевой промышленности)". Диссертация на соискание ученой степени доктора философии по специальности «Экономика», КНПУ имени Абая 2012.; Ларин В.М., Немцев А.Д. Сущность и факторы конкурентоспособности предприятия // Вестник Самарского государственного экономического университета 2010. 2 (64); Павлова А.В. и другие "Повышения конкурентоспособности предприятия пищевой промышленности: кластерный подход". "Естественно-гуманитарные исследования". Международный журнал №3 (5). 2020г.; Шелудько Е. Б. Конкурентоспособность предприятия: сущность, факторы и принципы // Научно-методический электронный журнал «Концепт». - 2016. - № 56;

<sup>5</sup> Оtmaxova Ю.С., Усенко Н.И., Деяткин Д.А., Сонгкассири В. "Оценка экспортного потенциала страны с учетом глобального спроса на мировом рынке продовольствия". Экономические и социальные перемены: факты, тенденции, прогноз. 2019. Т. 12. №4. С. 104-122. DOI: 10.15838/ess.2019.4.64.7; Власенко Т.И. Комплексная оценка уровня конкурентоспособности отрасли // Электрон журнал "Вызовы XXI века и стратегия устойчивого развития". 2003.; Ангелина И.А. Салита С.Б. "Оценка конкурентоспособности предприятия пищевой промышленности: методический аспект" // Вестник института экономических исследований 2018, №4; Саханова Г. "Развитие конкурентоспособности экономики Республики Казахстан: проблемы и перспективы (на примере пищевой промышленности)". Диссертация на соискание ученой степени доктора философии по специальности «Экономика», КНПУ имени Абая 2012.; Д.С.Воронов "Оценка конкурентоспособности множества предприятий" // Журнал "Серия экономика и управление" №2. 2015.

<sup>6</sup> Шоахмедов Ш. Повышение уровня конкурентоспособности промышленности в условиях либерализации и углубления экономических реформ. Дисс. на соис. к.э.н., ЦСЭИ Т., 2006; Насырходжаева Д.С. "Пути повышения конкурентоспособности потребительской продукции Республики Узбекистан (на примере производства ТНП в легкой промышленности)". Диссертация. Академия наук Республики Узбекистан Институт экономики. Т. 2002.; Назаров Ш.Х. Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов // Монография. Ташкент: IFMR, 2014. -212с.; Rasulov T.S., Sharipov Q.B. Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini baholashga bo'lgan turli xil yondoshuvlar tahlili // "XXI asr. fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. №1, 2020 yil; J.I. Isroilov "Tadqiqotlik sub ektlari faoliyatining iqtisodiy tahlili" Dissertatsiya. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti. Samarqand-2004.; Z.A. Xakimov "Yengil sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini marketing strategiyalarida oshirish" Diss. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. T. - 2018; B.T. Kim "Повышение конкурентоспособности промышленных предприятий на основе инновационных технологий" Дисс. на соискание ученой степени доктора философии по экономике наук им. И.Каримова, 2019, с.186.

<sup>7</sup> L. Zoyirov, A. Qorjonov "Milliy korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashda xorijiy investitsiyalarni o'rni". "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. №3, iyun, 2021-yil. ISSN: 2181-1016.; Mamasoliev G. Oziq-ovqat sanoatida qiyamat zanjirining shakli va uni boshqarish xususiyatlari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №6, noyabr-dekabr 2020-yil.

<sup>8</sup> Sharipov I.B., Xakimov Z.A. "Yengil sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini baholash usullarini takomillashtirish". // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №3, may-iyun, 2017-yil.; Isroilov J.I. Qurilish tashkilotlari faoliyatini raqobatbardoshligini baholash va uning tahlilini takomillashtirish yo'nalishlari // Iqtisod va moliya jurnali. №1, 2012.

Yuqorida qayd etilgan olimlarning tadqiqotlarida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda diversifikatsiya, moliyaviy likvidlikni ta'minlash, asosiy vositalar samaradorligini oshirish masalalariga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Bu esa, sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarni davom ettirishga asos bo'ladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy tadqiqot ishi rejalarini ta'minlashi bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Andijon mashinasozlik institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IK-6/3-11-raqamli "Hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishning innovatsion yo'nalishlari" (2022–2026-yillar) mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** oziq-ovqat sanoati korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalarini raqobatbardoshligining ilmiy-uslubiy jihatlarini bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlar qarashlarini tizimlashtirish;

sanoat korxonalarini raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillarning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

korxonalar raqobatbardoshligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini tasniflash va baholash usullarini takomillashtirish;

Andijon viloyati oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirish tendensiyalarini va raqobatbardoshlik darajasini baholash;

oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini diversifikatsiyalashning ustuvor yo'nalishlarini ochib berish;

oziq-ovqat sanoati korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish yo'llari bo'yicha takliflar berish hamda istiqbolini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Andijon viloyati donni qayta ishlash korxonalarini tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** oziq-ovqat sanoati korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish yo'llarini aniqlash jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, empirik baholash, omilli tahlil, tanlanma kuzatish, analiz va sintez, statistik tahlil, qiyosiy tahlil, SWOT-tahlil, korrelyatsiya, regressiya kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

oziq-ovqat sanoatining ishlab chiqarish va investitsiyalar hajmi, xom-ashyo bazasi klaster yondashuviga ko'ra baholanib, Andijon shahri, Asaka, Qo'rg'ontep, Oltinko'l tumanlarida yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini tashkil etish taklifi asoslangan;

xarid qilingan donni temir yo'lda tashishni rag'batlantirish maqsadida imtiyozli tariflarni belgilash mexanizmlarini ishlab chiqish hisobiga donni qayta ishlash korxonalarida xom-ashyo uzluksizligini hamda narxlar barqarorligini ta'minlash taklifi asoslangan;

donni qabul qilish, dastlabki ishlov berish (tozalash, quritish), qayta ishlashga mo'ljallangan uskunalarni olib kirganlik uchun mavjud bo'lgan to'lovlarini stavkalarini kamaytirish hisobiga donni qayta ishlashga mo'ljallangan loyihalarni

kengaytirish taklifi asoslangan;

oziq-ovqat sanoati korxonalariga kiritilgan investitsiyalar hamda xom-ashyo bazasi hajmiga ko'ra, raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarining 2027-yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari xalqaro tajribalar asosida tasniflangan hamda baholash usullari takomillashtirilgan;

oziq-ovqat sanoati bozor pozitsiyalari tahlili asosida korxonalarining raqobat strategiyalarini shakllantirish algoritmi ishlab chiqilgan;

oziq-ovqat sanoati korxonalarini ishlab chiqarish hajmi, ularning eksporti, investitsiya va ishlab chiqarish-resurs salohiyati asosida viloyatning tumanlari kesimida korxonalarini ixtisoslashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi manbalar asosida ko'p omilli regressiya tenglamalari ishlab chiqilgan va ular asosida raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarining o'rta muddatli prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqotda foydalanilgan ilmiy-nazariy qarashlar asosida oziq-ovqat sanoati korxonalarini raqobatbardoshligini qiyosiy va tanqidiy tahlil ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi va O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining statistik hisobotlari hamda Andijon viloyati yetakchi korxonalarining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi asosida xulosa qilinganligi, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oziq-ovqat sanoati korxonalarini raqobatbardoshligini baholash usullarini takomillashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish omillari va yo'nalishlarini tadqiq etish masalalariga oid tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot jarayonida olingan ilmiy xulosa va takliflar oziq-ovqat sanoatida raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Andijon viloyatidagi oziq-ovqat korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha strategiyalarni tayyorlashda va oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlari bo'yicha darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sanoat korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish mavzusida olib borilgan tadqiqotlar asosida:

oziq-ovqat sanoatining ishlab chiqarish va investitsiyalar hajmi, xom-ashyo bazasi klaster yondashuviga ko'ra baholanib, Andijon shahri, Asaka, Qo'rg'ontep, Oltinko'l tumanlarida yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini tashkil etish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ-5088-son "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari

11 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, shundan 1 ta xorijiy va 4 ta mahalliy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, uning hajmi 143 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, tadqiqot natijalarining aprobatatsiyasi, e'lon qilinganligi va ishing tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida sanoat korxonalari, xususan oziq-ovqat sanoatining iqtisodiyot taraqqiyotidagi o'rni, sohaning raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillarni o'ziga xos xususiyatlari va iqtisodiy holatini baholashning uslubiy jihatlari mahalliy va xorijiy ilmiy ishlar asosida tizimli ravishda tadqiq etilgan. Mamlakatimiz va xorijiy olimlar izlanishlarini umumlashtirish asosida mualliflik yondashuvlari ishlab chiqilgan.

Ilmiy adabiyotlarda sanoat korxonalari raqobatbardoshligini ichki va tashqi faoliyatini tavsiflovchi, mahsulot komponentiga asoslangan va korxonada mahsulot hamda ishlab chiqarish faoliyatini birlashtiruvchi ta'riflar asosida guruhlar bo'lib o'rganilgan. Xususan, Ye.B. Sheludko<sup>9</sup>, Ye.G. Kazarina<sup>10</sup>, I.A. Angelina, S.V. Salita<sup>11</sup> va V.G. Kim<sup>12</sup> korxonada raqobatbardoshligini korxonaning ochiq bozor sharoitida muvafaqqiyatli faoliyat yuritishi va yuqori samaradorlikni ta'minlash qobiliyati sifatida talqin qilganlar. A. Ambasta, K. Momaya<sup>13</sup>, Sh. Shoaxmedov<sup>14</sup>, D. Nasirxodjaeva<sup>15</sup>, G. Saxonova<sup>16</sup> mahsulot komponentiga asoslangan

<sup>9</sup> Шелудко Е. Б. Конкурентоспособность предприятия: сущность, факторы и принципы // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2016. – № 56.

<sup>10</sup> Казарина Е.Г. Влияние финансового состояния предприятия на конкурентоспособность предприятия // Инновационная наука – №1-2/2022.

<sup>11</sup> И.А. Ангелина, С.В. Салита "Оценка конкурентоспособности предприятий пищевой промышленности: методический аспект". Вестник института экономических исследований 2018, №4.

<sup>12</sup> В.Г. Ким. Повышение конкурентоспособности промышленных предприятий на основе инновационных технологий. Дисс. на соискание ученой степени доктора философии по экономическим наукам – Т.: ПГТУ им. И.Каримова, 2019, с.186.

<sup>13</sup> Ambastha, A., Momaya, K., Competitiveness of Firms: Review of Theory, Frameworks, and Models, "Singapore Management Review", Vol. 26, No. 1, pp. 45-61, 2004.

<sup>14</sup> Ш. Шоахмедов "Повышение уровня конкурентоспособности потребительской продукции Республики Узбекистан (на примере производства ТНП в легкой промышленности)" Диссертация. Академия наук Республики Узбекистан Институт экономики, Т. 2002.

<sup>15</sup> Д.С. Насырхожаева. "Пути повышения конкурентоспособности промышленности в условиях либерализации и углубления экономических реформ". Диссертация. ЦСЭИ Т.2006.

<sup>16</sup> Г. Саханова "Развитие конкурентоспособности экономики Республики Казахстан: проблемы и перспективы (на примере пищевой промышленности)" Диссертация на соискание ученой степени доктора философии по специальности «Экономика», КНПУ имени Абая 2012.

to'g'risida"gi qarorining 1-ilovasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi "O'zdonmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasining 2023-yil 30-maydagi №7-4-20-402-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish Andijon viloyatida oziq-ovqat sanoati korxonalari iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash bo'yicha hududiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish hamda tadbirkorlar faoliyatini kengaytirish imkoniyati yaratilgan;

xarid qilingan donni temir yo'lda tashishni rag'batlantirish maqsadida imtiyozli tariflarni belgilash mexanizmlarini ishlab chiqish hisobiga donni qayta ishlab korxonalarida xom-ashyo uzluksizligi hamda narxlar barqarorligini ta'minlash taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi PQ-4634-son "G'alla yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 1-ilovasidan foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi "O'zdonmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasining 2023-yil 30-maydagi № 7-4-20-402-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifni qo'llash natijasida oziq-ovqat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ichki bozordagi narxlar barqarorligini ta'minlash hamda korxonalar faoliyati uzluksizligi hisobiga raqobatdoshligini samarali oshirish imkoniyati yaratilgan;


donni qabul qilish, dastlabki ishlov berish (tozalash, quritish), qayta ishlashga mo'ljallangan uskunalarni olib kirganlik uchun mavjud bojxona to'lovlari stavkalarini kamaytirish hisobiga donni qayta ishlashga mo'ljallangan loyihalarni kengaytirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi PQ-4634-son "G'alla yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 1-ilovasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi "O'zdonmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasining 2023-yil 30-maydagi № 7-4-20-402-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifni joriy qilish natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, donni qayta ishlash ko'lamini samarali oshirish imkoniyati yaratilgan;

oziq-ovqat sanoati korxonalarida kiritilgan investitsiyalar hamda xom-ashyo bazasi hajmiga ko'ra, raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarining 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz parametrlaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-apreldagi VMQ-204-son "2022–2026-yillarda Andijon viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining 1-ilovasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi "O'zdonmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasining 2023-yil 30-maydagi № 7-4-20-402-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy etish natijasida oziq-ovqat sanoati korxonalarida mavjud xom-ashyodan samarali va maqbul foydalanish orqali yo'naltirilgan investitsiyalar ko'lamini optimallashtirishga ko'ra, ishlab chiqarish ko'lamini hamda samaradorligini oshirish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami

raqobatbardoshlik hususiyatlarini tadqiq qilgan. R. Fatxutdinov<sup>17</sup>, Ye. Fyur, T. Zavatki, I. Maksim<sup>18</sup>, D.S. Voronov<sup>19</sup>, A.G. Nemetne<sup>20</sup>, J. Isroilov<sup>21</sup> korxonalar qoʻlga olingan mahsulot ishlab chiqarish hamda iqtisodiy, moliyaviy, texnologik marketing innovatsion salohiyat boʻyicha ham ustun boʻlish deb tushuntirganlar.



1-rasm. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini raqobatbardoshligiga taʼsir etuvchi omillar<sup>22</sup>.

Korxonalar raqobatbardoshligi tushunchasini tadqiq etish asosida oziq-ovqat sanoati korxonalarini raqobatbardoshligi tushunchasiga mualliflik taʼrifi berilgan. "Oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligi xaridorlar manfaatlariga narx, sifat va miqdor jihatdan mos mahsulotlar ishlab chiqarish va bozorda

<sup>17</sup> Fatxutdinov R.A. Management of competitiveness of the organization. – 2nd ed. – New York: Penguin Books, 2005.

<sup>18</sup> Elena Fyur, Tatiana Zavatki, Ion Maxim Competitiveness of the enterprise: the essence and methods of evaluation // Technology audit and production reserves. Vol. 5 No. 3(13) (2013)

<sup>19</sup> Воронов Д.С. Соотношение конкурентоспособности предприятия и конкурентоспособности продукции // Журнал "Современная конкуренция" - 2015. Том 9. №1(49).

<sup>20</sup> Nemetne A.G. Competitiveness of small and medium sized enterprises - a possible analytical framework // IJECO-100115-A.

<sup>21</sup> J.I.Isroilov "Tadbirkorlik sub'ektlar faoliyatining iqtisodiy tahlili" Dissertatsiya. Samarqand iqtisodiyot va savdo instituti. Samarqand-2004.

<sup>22</sup> Muallif ishlanmasi.

muvaffaqiyatli targʻib qilish, shuningdek, ushbu sohadagi oʻz faoliyatini rivojlantirishi uchun yetarli boʻlgan mablagʻ bilan taʼminlash qobiliyatidir<sup>23</sup>.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini raqobatbardoshligini taʼminlashda omillarni tadqiq qilish asosida ularni ichki va tashqi omillarga ajratish muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).

Bunda ichki omillar sifatida mehnat unumdorligi, kadrlar malakasi, xom-ashyo mavjudligi, sifati va narxi, kapital samaradorligi, moliyaviy barqarorligi, zamonaviy texnika va texnologiyalar, innovatsiyalar, marketing faoliyati, sifat menejment tizimi keltirilgan.

Raqobat muhiti, taʼminot tizimi, mehnat resurslari va salohiyati, alohida tarmoqlarni rivojlantirish boʻyicha davlat siyosati, davlatning fiskal, moliya-kredit, bojxona va investitsiya siyosati, davlat standartlari va ularga rioya etish nazorati, infratuzilmaning rivojlanish darajasi va ilmiy-texnik salohiyat darajasi tashqi omillar sifatida keltirilgan.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini raqobatbardoshligini baholashda ularning bozorga moslashuvchanligini, iqtisodiy faoliyati natijalarini, asosiy vositalari holati va moliyaviy likvidligini va diversifikatsiya darajasini aks ettiruvchi koʻrsatkichlar tizimidan foydalanish taklif etiladi (1-jadval).

1-jadval. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini raqobatbardoshligini baholashning takomillashtirilgan uslubiyoti<sup>24</sup>.

No	Koʻrsatkichlar	Formula	Hisoblash metodikasi
1.	Korxonaning nisbiy operatsion samaradorlik koʻeffitsienti ( $K_r$ )	$K_r = \frac{r}{r^s}$	Bunda, $K_r$ – korxonaning nisbiy operatsion samaradorlik koʻrsatkichi, $r$ – korxonaning operatsion samaradorlik koʻrsatkichi, $r^s$ – tamlangan korxonaning samaradorlik koʻrsatkichi
2.	Korxonaning nisbiy bozorga moslashuvchanlik koʻeffitsienti ( $K_f$ )	$K_f = \frac{\Delta U}{\Delta U^s}$	Bunda, $K_f$ – korxonaning nisbiy bozorga moslashuvchanlik koʻeffitsienti, $\Delta U$ – korxonaning bozor ulushi oʻzgarishi, $\Delta U^s$ – tamlangan korxonaning bozor ulushi oʻzgarishi.
3.	Korxonaning nisbiy moliyaviy likvidlik koʻeffitsienti ( $K_l$ )	$K_l = \frac{F_a}{F_a^s}$	Bunda, $K_l$ – korxonaning nisbiy moliyaviy likvidlik koʻeffitsienti, $F_a$ – korxonaning moliyaviy likvidligi, $F_a^s$ – tamlangan korxonaning moliyaviy likvidligi.
4.	Korxonaning nisbiy vositalarining nisbiy yangilanish intensivligi koʻeffitsienti ( $K_b$ )	$K_b = \frac{K_0}{K_0^s}$	Bunda, $K_b$ – korxonaning asosiy vositalarining yangilanish intensivligi koʻeffitsienti, $K_0$ – korxonaning asosiy fondi yangilanish intensivligi koʻrsatkichi, $K_0^s$ – tamlangan korxonaning asosiy fondi yangilanish intensivligi koʻrsatkichi.
5.	Korxonaning nisbiy diversifikatsiya koʻeffitsienti ( $K_d$ )	$K_d = \frac{KD}{KD^s}$	Bunda, $K_d$ – korxonaning nisbiy diversifikatsiya koʻeffitsienti, $KD$ – korxonaning diversifikatsiya koʻeffitsienti, $KD^s$ – tamlangan korxonaning diversifikatsiya koʻeffitsienti.
6.	Oziq-ovqat korxonalarini raqobatbardoshligi ( $K_k$ )	$K_k = K_r * K_f * K_b * K_d$	

<sup>23</sup> Muallif taʼrifi.

<sup>24</sup> Tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi.

Shuningdek, tadqiqot ishida oziq-ovqat sanoatining raqobatbardoshligi sohaning ichki va tashqi bozor ulushi va umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi ko'rsatkichlari asosida hisoblangan xalqaro raqobatbardoshlik ko'rsatkichi (TCA), iste'molda import koeffitsienti ( $K_{imp}$ ), umumiy taklifda ishlab chiqarish koeffitsienti ( $K_p$ ), aniqlangan qiyosiy ustunlik koeffitsienti (RCA), tarmoqning eksportiga ixtisoslashganlik koeffitsienti ( $K_e$ ) orqali tadqiq qilingan.

Sanoat, sanoat tarmoqlari va korxonalari raqobatbardoshligini baholashning xalqaro tashkilotlar, xorijiy va mahalliy iqtisodchilar tomonidan taklif etilgan usullarni tadqiq etish asosida oziq-ovqat korxonalari raqobatbardoshligini baholash usuli takomillashtirilgan. Bunda, korxonaning iqtisodiy, moliyaviy, texnologik, marketing hamda diversifikatsiya mezonlari asosida baholash bo'yicha mualliflik yondashuvi taklif etilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi "Andijon viloyatidagi oziq-ovqat sanoati korxonalari raqobatbardoshligi tabiili" deb nomlangan bo'lib, Andijon viloyati oziq-ovqat sanoati tarmog'ining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari, oziq-ovqat sanoati korxonalari raqobatbardoshlik darajasi hamda unga ta'sir etuvchi omillar baholangan.

Oziq-ovqat sanoati jadallik bilan rivojlanmoqda, sohada faoliyat yuritayotgan korxonalar soni ortib, ishlab chiqarish hajmi o'smoqda.

## 2-jadval.

O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoati rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari<sup>25</sup>.

Ko'rsatkichlar	2015-y	2016-y	2017-y	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y	2022-yilda 2015-yilga nisbatan o'sish %da
Mahsulot ishlab chiqarish xajmi (mild.so'm)	21889,7	26782,3	28194,7	31695,8	43483,6	51647,7	60868,1	78647,9	150,7
Eksport hajmi (mln. AQSH doll.)	66,2	64,5	130,7	155,1	228,6	355,9	399,3	579,3	8,7 marta
Oziq-ovqat sanoatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi (mild.so'm)	565,3	919,9	1615,8	3117,0	4504,3	5315,0	4932	6079,4	10,7 marta
Oziq-ovqat sanoatida nisbiy mehnat unumdorligi	16,86	16,94	14,24	11,54	11,78	11,75	11,44	12,09	71,7
Oziq-ovqat sanoatidagi kapital qaytirmasi	38,72	29,11	17,45	10,17	9,65	9,72	12,34	12,94	33,41
Oziq-ovqat sanoatida kapital intensivlik	0,83	1,07	1,29	1,22	0,88	0,99	0,88	0,96	115,86
Oziq-ovqat sanoatining importni qoplash koeffitsienti	0,90	0,50	0,74	0,75	0,82	0,70	0,51	0,48	53,33

2015–2022-yillarda respublika oziq-ovqat sanoati real ishlab chiqarish hajmining o'sishi 150,7 foizni tashkil etgan. Shuningdek, sohaning eksport hajmi joriy narxlarda 8,7 barabarga oshgan va 579,3 mln. AQSH dollarini tashkil etgan.

<sup>25</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Lekin, shuni ham ta'kidlash kerakki, oziq-ovqat sanoati eksport salohiyatining hozirgi darajasi qoniqarli emas. Respublikada oziq-ovqat mahsulotlari importini qoplash koeffitsienti 2015–2022-yillarda 46,7 foizga pasaygan bo'lib, 2022-yilda 0,48ga teng bo'lgan. Oziq-ovqat sanoati eksport salohiyatini oshirish uchun sohaga ilg'or texnologiyalarga, xalqaro sifat menejmenti tizimiga va o'z brendiga ega bo'lgan xorijiy kompaniyalarning kirib kelishini rag'batlantirish kerak. Buning uchun, sohada qulay investitsiya muhitini yaratish va xorijiy investitorlarni jalb qilish hamda rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoatiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2022-yilda 2015-yilga nisbatan 11 marta ortgan bo'lsada, oziq-ovqat sanoatida kapital qaytirmasi mazkur davrda kamayib borgan. Bu ko'rsatkich 2015-yildagi 38,72dan 2022-yilda 12,94gacha pasaygan (2-jadval).

Umuman aytganda, oziq-ovqat sanoati rivojlanishining miqdoriy ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatilsada, samaradorlik mezonlarida salbiy tendensiyalar bo'lgan. Bunga ayrim tarmoqlarda xom-ashyoning yetishmasligi, ishlab chiqarish texnika va texnologiyalarining eskirganligi, innovatsiyalarning keng joriy etilmaganligi, kooperatsion aloqalarning sustligi, kadrlar malakasining pastligi hamda sohada davlat ulushining yuqoriligi sabab bo'lmoqda.

## 3-jadval.

Andijon viloyatida oziq-ovqat sanoati rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari<sup>26</sup>.

Ko'rsatkichlar	2015-y	2016-y	2017-y	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y	2022-yilda 2015-yilga nisbatan o'sish %da
Mahsulot ishlab chiqarish xajmi (mild.so'm)	1363,8	1456,9	1524,2	1704,3	2323,0	2761,6	2 588,4	3308,7	124,5
Eksport hajmi (mln. AQSH doll.)	3,5	54,5	72,2	81,2	103,9	51,6	42,2	42,1	12 marta
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi (mild. so'm)	10,2	17,9	31,1	45,6	58,8	31,2	55,9	277,5	27 marta
Kapital qaytirmasi	133,7	81,4	49,0	37,4	32,1	12,8	10,8	11,9	8,9
Nisbiy mehnat unumdorligi	20,0	20,3	15,9	12,5	14,0	14,4	11,2	14,1	70,5


Andijon viloyatida oziq-ovqat sanoatining rivojlanish darajasi respublikaning o'rta ko'rsatkichlaridan ortda qolmoqda. Tadqiqot davrida mahsulot ishlab chiqarish hajmining real o'sishi viloyatda 124,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, respublikada 150,7 foizni tashkil etgan. Shuningdek, aholi jon boshiga oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha ham Andijon viloyati respublikaning o'rta ko'rsatkichlaridan ikki barabar ortda qolgan. 2022-yilda respublika bo'yicha aholi jon boshiga oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish o'rtaicha 2229798 so'mni tashkil etgan bo'lsa, Andijon viloyatida bu

<sup>26</sup> Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



ko'rsatkich 1024312 so'zmi tashkil etgan. Shunga qaramay, bu davrda viloyatda oziq-ovqat sanoatining rivojlanishida ijobiy o'zgarishlar bo'lgan. Xususan, sohada katta investitsion loyihalarni amalga oshirish natijasida 2019-yilda ishlab chiqarish 27 foizga o'sgan, sohaga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi keskin ortgan hamda 2015–2022-yillarda tadbirkorlik subyektlari soni va ish bilan bandlar soni deyarli ikki barabarga ortgan. Lekin, bu davrda viloyatning oziq-ovqat sanoatida nisbiy mehnat unumdorlik ko'rsatkichi 29,5 foizga, kapital qaytimi ko'rsatkichi 133,7dan 11,9gacha kamaygan (3-jadval). Oziq-ovqat sanoatida samaradorlikni oshirish uchun sohaga xorijiy investitsiyalar va innovatsiyalarni jalb etish, xom-ashyo bazasini kengaytirish, kooperativ aloqalarni rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, sohani diversifikatsiyalash hamda davlat ulushini kamaytirishga e'tibor qaratish lozim.

Andijon viloyati hududlarida oziq-ovqat sanoatining rivojlanish darajasi mahsulot ishlab chiqarish hajmi, eksport hajmi, investitsiyalar hajmi, oziq-ovqat sanoatida bandlar soni, korxonalar foydasi, ish haqi fondi ko'rsatkichlarida aks etishini hisobga olib, mazkur ko'rsatkichlardagi farqlarga asosan hududlar STATISTICA dasturlar paketidan foydalanib, klaster usuli yordamida 5 ta toifalarga ajratilgan. Tahlillarga ko'ra, hududlar orasida Andijon shahri oziq-ovqat sanoati rivojlanishi bo'yicha yetakchi o'rinni egallagan (2-rasm).



2-rasm. Andijon viloyatida oziq-ovqat sanoati rivojlanish darajasiga ko'ra, hududlarning klaster tahlili<sup>27</sup>.

Demak, oziq-ovqat sanoati rivojlanish darajasiga ko'ra, Andijon shahri 1-toifaga, Asaka, Jalaquduq va Qo'rg'ontepa tumanlari 2-toifaga, Andijon, Bo'ston, Shaxrixon va Izboskan tumanlari 3-toifaga, Baliqchi, Paxtaobod, Xo'jabod, Buloqbo'shi, Marxamat va Oltinko'ltan tumanlari 4-toifaga, Ulg'och tuman va Xonobod shahri 5-toifaga kiradi.

Ushbu ma'lumotlarga tayangan holda, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda 4- va 5-toifalarga kirgan hududlarda davlat ko'magiga

<sup>27</sup> Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

ehtiyoj yuqori ekanligiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur hududlarda mavjud xom-ashyo, moddiy-texnika bazasi, infratuzilma va uzoq yillar davomida dehqon xo'jaliklarida shakllangan ixtisoslashuvni hisobga olgan holda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash zarur. Yuqoridagi omillarni inobatga olganda, Andijon shahri, Asaka, Qo'rg'ontepa, Oltinko'ltan tumanlarida yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarni tashkil etish asosida viloyat oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarish hajmi va tadbirkorlikni kengaytirish istiqbolli hisoblanadi.

Respublika oziq-ovqat sanoati raqobatchilik ko'rsatkichlari tahlil qilinishi uchun sohada ushbu sohaning raqobatchilik darajasi pasayganligi to'g'risida xulosaga kelingan. Chunki, so'ngi dekadada xalqaro raqobatchilik ko'rsatkichi, tarmoqning ichki bozordagi raqobatchilik ko'rsatkichi (ICIM), umumiy taklifda ishlab chiqarish ko'rsatkichlari kamaygan (4-jadval).

Jumladan, oziq-ovqat sanoatining xalqaro raqobatchilik ko'rsatkichi 2010-yildagi 0,165 ko'rsatkichdan 2022-yilda -0,354ga pasaygan, ICIM ko'rsatkichi esa, 0,927dan 0,528ga pasaygan. Shuningdek, sohada importni eksport bilan qoplash 1,4dan 0,48 ko'rsatkichgacha kamaygan. Iste'moldagi import ko'rsatkichi esa, 0,221dan 0,4ga ortgan. Bu ichki bozorda respublika oziq-ovqat sanoatining raqobatchilik pasayib borayotganini ko'rsatadi.

4-jadval.

O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoatining asosiy raqobatchilik ko'rsatkichlari<sup>28</sup>.

Ko'rsatkichlar nomi	2010-y	2015-y	2017-y	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y
Xalqaro raqobatchilik ko'rsatkichi	0,165	-0,054	-0,147	-0,142	-0,099	-0,177	-0,333	-0,354
Iste'moldagi import ko'rsatkichi	0,221	0,166	0,196	0,330	0,342	0,343	0,386	0,4
Umumiy taklifda ishlab chiqarish ko'rsatkichi	0,831	0,856	0,829	0,735	0,733	0,723	0,676	0,664
Sohaning ichki bozordagi raqobatchilik ko'rsatkichi (ICIM)	0,927	0,968	0,839	0,600	0,641	0,618	0,588	0,528
Sohaning eksport ko'rsatkichi	0,284	0,151	0,154	0,271	0,298	0,268	0,240	0,191
Sohaning eksportga ixtisoslashish ko'rsatkichi	0,583	0,608	0,442	0,722	0,775	0,746	0,732	0,784
Aniqlangan qiyosiy ustunlik ko'rsatkichi (RCA)	1,160	0,665	0,682	1,191	1,364	1,255	1,073	1,092
Importni qoplash ko'rsatkichi	1,4	0,9	0,74	0,75	0,82	0,70	0,51	0,48

<sup>28</sup> Jahon banki statistik ma'lumotlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurdagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Mazkur davrda ichki bozorda raqobatbardoshlikni aks ettiruvchi ko'rsatkichlarning pasayishi quyidagi omillar bilan bog'liq:

- oziq-ovqat mahsulotlari importining boj to'lovlaridan ozod qilinishi;
- importda yuqori ulushga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oshishi, bu import qiymatining oshishiga olib kelmoqda;
- oziq-ovqat sanoatining ayrim tarmoqlarida ishlab chiqarishning qisqarishi;
- aholi daromadlarining ortishi natijasida iste'mol tovarlar tarkibining o'zgarishi;
- import o'rmini bosuvchi mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarining import mahsulotlarga nisbatan sifatining pastligi.

Oziq-ovqat sanoatining tashqi bozordagi raqobatbardoshligi tahlil qilinganda ijobiy tendensiya kuzatilgan. Xususan, sohaning eksportga ixtisoslashish ko'effitsienti 2010-yildagi 0,583 ko'rsatkichdan 2022-yilda 0,784ga oshgan. RCA ko'effitsienti esa, so'ngi yillarda 1dan yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan. Bu mamlakat oziq-ovqat sanoati tashqi bozorda umumiy holda qiyosiy ustunlikka ega bo'lganini ko'rsatadi. Lekin, sohaning eksport ko'effitsienti 0,191ni tashkil etib, 2010-yildagi ko'rsatkichga nisbatan pasaygan. Shu bois, mamlakatimiz oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan, meva-sabzavotlar, poliz mahsulotlari hamda chorvachilik mahsulotlari yetishtirishda katta salohiyatga ega bo'lganini inobatga olib, bu mahsulotlarni chuqur qayta ishlab va eksportga yo'naltirishni o'z ichiga olgan oziq-ovqat sanoati klasterlarini tashkil etishga e'tibor qaratish zarur.

### 5-jadval. Andijon viloyati oziq-ovqat sanoatining raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari<sup>29</sup>.

Ko'rsatkich nomi	2010-y	2015-y	2016-y	2017-y	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y
Xalqaro raqobatbardoshlik ko'effitsienti	-0,032	-0,098	0,238	0,402	0,431	0,723	0,586	0,518	0,523
face'moldagi import ko'effitsienti	0,023	0,009	0,066	0,109	0,177	0,093	0,056	0,061	0,049
Umumiy taklifda ishlab chiqarish ko'effitsienti	0,978	0,991	0,940	0,913	0,877	0,941	0,954	0,949	0,958
Sohaning eksport ko'effitsienti	0,022	0,007	0,103	0,223	0,352	0,390	0,186	0,170	0,141
Sohaning eksportga ixtisoslashish ko'effitsienti	0,100	0,130	1,041	1,450	3,352	2,927	1,151	0,587	0,555
Aniqlangan qiyosiy ustunlik ko'rsatkichi	0,088	0,031	0,466	0,989	1,548	1,783	0,870	0,759	0,698
Importni qoplash ko'effitsienti	0,938	0,821	1,623	2,343	2,515	6,223	3,833	3,148	3,195

<sup>29</sup> Jahon banki statistik ma'lumotlari va Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Viloyat oziq-ovqat sanoatining raqobatbardoshlik darajasi va uning yillar davomida o'zgarish tendensiyalarini baholash uchun raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari tahlil qilinganda, so'ngi o'n yillikda Andijon viloyati oziq-ovqat sanoatining raqobatbardoshlik darajasi ortgan. Xususan, viloyat oziq-ovqat sanoatining xalqaro raqobatbardoshlik ko'effitsienti, eksport ko'effitsienti, eksportga ixtisoslashuv ko'effitsienti tadqiqot davrida ijobiy o'zgargan. Umumiy taklifda, ishlab chiqarish ko'effitsientining 0,958ni tashkil etishi sohaning ichki bozorda raqobatbardosh ekanligini ko'rsatadi. Sohaning eksportga ixtisoslashish ko'effitsienti, aniqlangan qiyosiy ustunlik ko'effitsientlarining so'ngi yillardagi salbiy o'zgarishi sohaning tashqi bozorda raqobatbardoshlik darajasi pasayib borayotganini ko'rsatadi. Demak, viloyat oziq-ovqat sanoatining tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlash uchun sohaga xorijiy investitsiyalar va innovatsiyalarni keng jalb etish, texnika-texnologiyalarni modernizatsiyalash, klasterlar tashkil etish, infratuzilma va logistika tizimini rivojlantirish hamda eksportni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish zarur.

Andijon viloyatida aholining un mahsulotlariga ehtiyoji tibbiy me'yorlar bo'yicha 330-335 ming tonnani tashkil etib, hududiy yirik korxonalar tomonidan ehtiyojni qondirish darajasi 38,23 foizni tashkil etmoqda. Mamlakatimiz aholisining yil sayin o'sib borayotganini hisobga olib, hududlarda g'alla ta'minotini yaxshilash, donni qayta ishlab quvvatlarini oshirishni rag'batlantirish zarur. Xususan, mintaqalarda g'alla ta'minotidagi tafovutlarni yumshatish va xarid qilingan g'allani temir yo'l orqali tashishni rag'batlantirishda imtiyozli tariflarni qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqish taklif etiladi. Donni qayta ishlab quvvatlarini oshirish uchun mamlakatga donni qabul qilish, dastlabki ishlov berish (tozalash, quritish), qayta ishlashga mo'ljallangan uskunalarni olib kirganlik uchun mavjud bojxona to'lovlari stavkalarini kamaytirish hisobiga donni qayta ishlashga mo'ljallangan loyihalarni kengaytirish zarur.

### 6-jadval. Andijon viloyatidagi yirik donni qayta ishlab korxonalari tomonidan hudud aholisining un mahsulotlariga ehtiyojini ta'minlash darajasi (% hisobida)<sup>30</sup>.

Korxonasi nomi	2015-y	2016-y	2017-y	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y	2022-y
Andijon don mahsulotlari AJ	18,56	14,66	18,56	15,14	19,02	18,50	16,14	12,36
Asaka don mahsulotlari AJ	13,14	12,44	15,65	15,17	14,98	16,27	14,59	12,93
Qo'riqontepa don mahsulotlari AJ	12,26	9,74	10,88	14,74	13,09	15,45	13,47	12,93
Umumiy	43,96	36,84	45,09	45,05	47,09	50,22	44,20	38,23

Bugungi kunda un va non mahsulotlari bozorini erkinlashirishga qaratilgan islohotlar donni qayta ishlovchi korxonalar oldiga yangi bozor sharoitiga moslashish hamda yangi raqobat strategiyalarini ishlab chiqish vazifasini qo'yadi. Ushbu vazifani bajarish uchun, avvalo korxonalarining hozirgi raqobatbardoshlik

<sup>30</sup> Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari asosida tuzildi.

holatini tahlil qilish, resurs zahiralari baholash zarur. Shu bois, tadqiqot obyektini sifatida olingan, Andijon viloyatidagi donni qayta ishlovchi "Qo'rg'ontepa don mahsulot" AJ, "Asaka don mahsulot" AJ va "Andijon don mahsulot" AJ korxonalarining raqobatbardoshligini tadqiq qilingan.

